

## ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR IJODINI O'RGATISHDA INNOVATSION METODLARDAN FOYDALANISH

*O'zbekiston tuman 2-son kasb-hunar  
maktabi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi  
Abdualilova Gulhayo Jaloliddin qizi*

***Annotatsiya:** Bobur ijodi mumtoz so'z san'atimizda Navoiydan keyingi alohida bosqichni tashkil etadi. Zero Amir Haydar ta'kidlaganidek, —Turkiy she'rni Amir Alisherdan keyin hech kim Bobur yozgan darajada yozgan emas . U adabiyotni hayotga, adabiy tilni xalq tiliga yaqinlashtirdi. Atoiy, Lutfiy she'rlaridagi xalqchillik Bobur asarlarida yangicha shaklda qayta tug'ildi.*

***Kalit so'zlar:** Bobur ijodi, mumtoz so'z san'at, adabiyot, hayot, adabiy til, xalq tili.*

U o'z asarlarining mavzusini asosan hayotdan oldi. Zahiriddin Muhammad Bobur sohibdevon shoir bo'lsa-da, uning devoni bizgacha mukammal holda yetib kelmagan. Hozirgacha shoirning 119 g'azal, 1 masnaviy she'ri, 209 ruboiysi, 10 dan ortiq tuyuq va qit'alari, 50 dan ortiq muammo va 60 dan ziyod fardlari aniqlangan. Devoni tarkibidan umumiy hajmi 270 baytdan iborat 8 masnaviy ham o'rin olgan. Yaqinda adabiyotshunos olim Shafiqa Yorqin Boburning Turkiyadagi Istanbul universiteti kutubxonasi turkiy qo'lyozmalar bo'limida 3743 raqami ostida saqlanayotgan devonidagi uning hozirgacha nashr etilgan to'plamariga kirmagan o'zbek tilidagi 5 g'azali, 9 qit'asi, 5 ruboiysi, 9 masnaviy she'ri, 10 to'rliqi, 2 tuyug'i, 40 dan ortiq fardlari, qator masnu' she'rlari, 1 masnu' tarje'bandi, 2 nomasi, fors-tojik tilidagi 1g'azali, 10 ruboiysi, 4 qit'asi, 12 fardi va 2 nomasini e'lon qildi. Bobur lirikasi mavzu doirasi, shakliy takomili va badiiyligi jihatidan g'oyat go'zal va mukammalligi bilan alohida e'tiborga loyiq. Shoirning she'rlarida hayotbaxsh tuyg'ular – hayotdan zavqlanish, el-yurt, diyor sevgisi, ona Vatandan uzoqda yurgan lirik qahramonning iztirobli tuyg'ulari, pand-nasihath mavzusidagi

ilm-maʼrifat, odob-axloqqa chaqiruvchi mavzular yuksak mahorat bilan kuylanadi. Bobur poeziyasining muhim tomonlaridan biri shoir sheʼrlari tarixiy voqea va hodisalar bilan chambarchas bogʻlanishida va oʻsha davrning voqeligi sodda va ravon tilda taraqqiyparvar fikrlar bilan ifodalanishi, joʻshqinligi, til boyligi va hayotiyigidadir:

Davron meni oʻtkardi sar-u samondin,  
Oyirdi meni bir yoʻli xonumondin.  
Gah boshima toj, gah baloyi taʼna,  
Nelarki, boshimgʻa kelmadi davrondin.

Umumtaʼlim maktablarining adabiyot darsliklariga Zahiriddin Muhammad Boburning eng sara sheʼrlari kiritilgan va ular mavzu va gʻoya jihatidan darsliklarga taqsimlangan. Masalan, 5-sinfda oʻquvchilar shoirning asosan vatan mavzusidagi ruboiylari bilan tanishadilar:

Beqaydmen-u xarobi siym ermasmen,  
Ham mol yigʻishtirur laim ermasmen.  
Kobulda iqomat etti Bobur, dersiz,  
Andoq demangizlarki, muqim ermasmen.

Vatan haqidagi qarashlari, asarlaridagi vatanparvarlik gʻoyalari oʻzining taʼsirchanligi, mazmuning chuqurligi bilan oʻquvchilarda Vatanga muhabbat, uning bemisl boylıklariga, insonlarga mehr-oqibat tuygʻularini tarbiyalashda katta xizmat qiladi. Oshufta shoir ona yurtidan yiroqda boʻlsa ham, oʻzi tugʻilib oʻsgan yurtiga, ona Vataniga boʻlgan muhabbat, unga yetishish orzusi doim uning qalbidan iztirob tuygʻularini oʻchirmaydi. “Fikriy hujum” gʻazal nima?” bu metodda oʻquvchilar gʻazal haqidagi fikrlarni shu paytgacha oʻrgangan bilimlari asosida bildira boshlaydilar. Bildirilgan fikrlar sinf taxtasiga yozib boriladi. Notoʻgʻri fikrlar uchun ham tanbeh berilmaydi, chiroyli, asosli fikrlar ragʻbatlantiriladi va umumiyashtiriladi.

1-oʻquvchi: Gʻazal (arab. — ayolni sevish, unga oshiqona munosabatda boʻlish) — Sharq adabiyotida eng keng tarqalgan lirik janr. "Gʻazal" atamasi dastlab VIVII asrlarda arab sheʼriyatida paydo boʻlgan. Soʻng Oʻrta Osiyo va

Sharq xalqlari adabiyotlariga o'tib, X asrda forsiy adabiyotga, XIV asr boshlarida turkiy adabiyotga kirib kelgan. Hajmi 3 baytdan 19 baytgacha qilib belgilangan. Lekin 21, hatto 27 baytli g'azal namunasi ham uchraydi.

2-o'quvchi: G'azal aa, ba, va, ga, da va h.k. tarzda qofiyalanadi, boshdan-oxir bir xil vaznda yoziladi. Ilk bayti matla' yoki mabda', oxirgisi maqta' deb ataladi. Agar ikkinchi baytning misralari ham o'zaro qofiyalansa, zebi matla' yoki husni 28 matla' deyiladi. G'azalning paydo bo'lishi va rivojlanishi musiqa san'ati bilan chambarchas bog'liq. Dastlab G'azalga taxallus qo'yilmagan, bu keyinchalik an'anaga aylangan.

3-o'quvchi: G'azal dastlab ishqiy mavzuda yozilgan bo'lsa-da, keyinchalik uning mavzu doirasi kengayib bordi hamda ijtimoiy-siyosiy, falsafiy-axloqiy, mav'iza (pandnasihat) va hajviy G'azallar yuzaga keldi. G'azal tuzilishiga ko'ra 4 mustaqil turga ajraladi: mustaqil baytlardan tuzilgan (parokanda) g'azal; yakpora g'azal; voqeaband g'azal.; musalsal g'azal. Ma'no jihatidan esa orifona, oshiqona va rindona g'azallarga bo'linadi. O'quvchilar mustaqil fikr bildirib, bu usulni davom ettirishlari mumkin.

O'qituvchi: O'zbek adabiyoti-tida g'azalning ilk namunalari Rabg'uziyning "Qisasi Rabg'uziy", Xorazmiyning "Muhabbatnoma"sida uchraydi; keyinchalik Sayfi Saroyi, Hofiz Xorazmiy, Yusuf Amiriy, Sakkokiy, Atoiy, Gadoiy, Lutfiy, Alisher Navoiy, Ubaydiy, Mashrab, Mujrim-Obid, Amiriy, Nodira, Uvaysiy, Munis, Ogahiy, Muqimiy, Furqat, Avaz O'tar va boshqalar ijodida rivojlantirildi. Shuningdek Bobur ham o'z ijodida go'zal g'azal namunalarini yaratgan.

"Anglash" metodi: Topshiriqlarning amaliyoti sifatida guruhlariga Bobur qalamiga mansub shoh satrlardan namunalar beriladi. O'quvchilar berilgan baytlarda qo'llanilgan she'riy san'at turlarini aniqlaydilar, sharhlab beradilar:

1. Ko'zumdin yoshunib ey bahri altof,

Ko'zumning yoshini daryo qilibsan.

(mubolag'a)

2. Xati binafsha, xadi lola, zulfi rayxondur,

Bahori xusnida yuzi ajab gulistondur

(tashbeh)

3. Raftoir-yu qadig‘a ravonim sadqa,  
Bir boqishig‘a ikki jahonim sadqa.

(tazod)

4. Qondin elga yoydi tifli ashk sirrimni mening,  
CHunki men iul yoshni hargiz sohib asror etmadim.

(iyhom)

5. Qadu xatting bila ko‘zu yuzung, ey sarvi siymin tan,  
Biri sarvu, biri rayhon, biri nargis, biri gulshan.

(tanosub)

6. Sabru hushu aqlu dilimni olibdur naylayin,  
Sarv qaddi, gul ruhi, rayhon xati, nasrin bari.

(laff va nashr)

7. Ko‘zumdin yoshunib ey bahri altof,  
Ko‘zumning yoshini daryo qilibsana.

(mubolag‘a)

8. Xati binafsha, xadi lola, zulfi rayxondur,  
Bahori xusnida yuzi ajab gulistondur

(tashbeh)

9. Raftoir-yu qadig‘a ravonim sadqa,  
Bir boqishig‘a ikki jahonim sadqa.

(tazod)

10. Qondin elga yoydi tifli ashk sirrimni mening,  
Chunki men iul yoshni hargiz sohib asror etmadim.

(iyhom)

11. Qadu xatting bila ko‘zu yuzung, ey sarvi siymin tan,  
Biri sarvu, biri rayhon, biri nargis, biri gulshan.

(tanosub)

12. Sabru hushu aqlu dilimni olibdur naylayin,  
Sarv qaddi, gul ruhi, rayhon xati, nasrin bari.

(laff va nashr)

O'qituvchi: Buyuk sohibi kalomlar o'z asarida she'riy san'atlarni o'rni va me'yori bilan qo'llaganlar. Chunki har qaysi she'riy san'at g'oyani badiiy ifodalash, timsollarni yorqin gavdalantirish, asarga joziba, jilo va ta'sirchanlik bag'ishlash vazifasini bajaradi.

Adabiyotlar

1. Najmiddin Komilov. Ma'nolar olamiga safar. – T.: Tamaddun, 2012.
2. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. – T.: Yulduzcha, 1989.
3. Zahiriddin Muhammad Bobur. Mubayyin. – T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. 2000.
4. Zahiriddin Muhammad Bobur. So'chining savdosi tushdi. – T.: SHarq. 2007.
5. Otajonov. N. «Boburnoma» jahon kezadi T: 1970